

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОДУКТОВ
ПИТАНИЯ**

**DIRECTIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF FOOD
PRODUCTS**

Xamdamova Marjona Adxam qizi
QarDTU 1-kurs magistranti

Хамдамова Марджона Адхам кизи
Студент 1 курса магистратуры КарДТУ

Khamdamova Marjona Adham kizi
1st year student of the Master's program at KarDTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va samaradorlikni baholash mexanizmlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda korxonalarga o'z faoliyatini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun SWOT tahlil etildi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari haqida xulosa berilgan hamda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, SWOT tahlil, iqtisodiy samara, samaradorlik, samaradorlikni baholash, raqobatbardoshlik, mexanizm, investitsiya, eksport, texnologiya, sifat, raqobat.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы оценки экономической эффективности и результативности предприятий пищевой промышленности, а также приводится SWOT-анализ, который поможет предприятиям улучшить свою деятельность, повысить конкурентоспособность и достичь устойчивого развития. Сделан вывод о путях повышения экономической

эффективности предприятий пищевой промышленности и рассмотрены меры по обеспечению продовольственной безопасности в нашей стране.

Ключевые слова: *продукты питания, SWOT-анализ, экономическая эффективность, результативность, оценка эффективности, конкурентоспособность, механизм, инвестиции, экспорт, технология, качество, конкуренция.*

Abstract. *This article discusses the economic efficiency and efficiency assessment mechanisms of food industry enterprises, in which a SWOT analysis is conducted to help enterprises improve their activities, increase competitiveness and achieve sustainable development. A conclusion is made on the ways to increase the economic efficiency of food industry enterprises, and measures are considered to ensure food safety in our country.*

Key words: *food products, SWOT analysis, economic efficiency, effectiveness, efficiency assessment, competitiveness, mechanism, investment, export, technology, quality, competition.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi sohadagi sifat o‘zgarishlarga erishish imkonini yaratdi. “So‘nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSH dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSH dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o‘rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSH dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi.”¹³⁰

Keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga

¹³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko‘rsatkichlarini 2 baravarga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta‘minlashning 2030 yilgacha mo‘ljallangan strategiyasida muhim masalalarga e‘tibor qaratilgan. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, mavjud yer, suv va boshqa resurslardan yanada oqilona foydalanish, zamonaviy va intensiv texnologiyalarni qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar asta-sekin o‘z samarasini bermoqda. Xususan, ekin maydonlaridan yil davomida samarali foydalanish hisobiga asosiy, oraliq va takroriy ekin sifatida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ekinlari ekilib, ulardan yuqori hosil yetishtirilib, nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham savdo hajmini oshirishga imkoniyat yaratildi.

Agrar va oziq-ovqat sohalarining har bir tarmog‘ini yangi va integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarishga o‘tilishi, ushbu tarmoqlarning jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash bilan bir qatorda, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va qo‘shimcha qiymatni va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning barqaror qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimini barcha uchun yetarli darajada oziq-ovqat mavjud bo‘lishini ta‘minlash maqsadida mustahkamlash uchun eng muhim vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlash;
- oziq-ovqat ta‘minoti zanjirida mahsulotlar yo‘qotilishi va isrofgarchiligini kamaytirish;
- tabiiy resurslar, yer, suv va oziq-ovqat zaxiralarini barqaror boshqarish;
- transchegaraviy hayvonlar kasalliklari va o‘simliklar zararkunandalariga qarshi kurashish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligini barqaror oshirish uchun qishloq joylarda maslahat-axborot tizimlarini va bilimlarni oshirish xizmatlarini takomillashtirish.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan shakar, oddiy uglevodlar, to‘yingan va trans yog‘lar iste‘molini cheklash, buning o‘rniga meva va sabzavotlarni iste‘mol qilish tavsiya etilmoqda. Nosog‘lom ovqatlanish va to‘yib ovqatlanmaslik oqibatlarining global iqtisodiyotga salbiy ta‘siri yiliga 3,5 trln AQSH dollarini yoki aholi jon boshiga 500 AQSH dollarini tashkil etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi tahlillariga ko‘ra, O‘zbekistonda meyorida ovqatlanmaslik oqibatida yo‘qotilgan samaradorlik sababli yuzaga kelgan yashirin qo‘shimcha xarajatlar 3,5 baravar ko‘p bo‘lib, 7,3 trln so‘mni tashkil etmoqda.

Jahon globallashtirish jarayonida oziq-ovqat korxonalari tomonidan taqdim etilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiyalash, korxonalarni samaradorligini oshirishning bir yo‘li sifatida qaralmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek – “Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masaladir”¹³¹ Buni hal etishda masalani ikki jihatiga ahamiyat berish lozim.

Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan qaralganda dunyo aholisining soni tobora ko‘payib borayotganligi, bu esa oziq-ovqatga bo‘lgan talabni oshishini ifodalaydi. Insonlar uchun oziq-ovqat resurslarining yetarli bo‘lishini ta’minlash asosiy vazifaga aylanadi. Global iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hosildorlikni kamaytiradi va oziq-ovqat taqchilligini keltirib chiqishiga sabab bo‘ladi. Siyosiy beqarorlik oziq-ovqat ta’minoti zanjirlarini buzishga olib keladi va oziq-ovqatga bo‘lgan imkoniyatni cheklaydi. Ishlab chiqarishdan tortib iste’molgacha bo‘lgan jarayonlarda oziq-ovqatning katta miqdorda isrof bo‘lishi oziq-ovqat resurslariga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Qolaversa, o‘simliklar va hayvonlarning kasalliklari, zararkunandalar hosildorlikni kamaytirishi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan holatlar sanaladi.

Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tahlil etilganda ekologiyaning ifloslanishi natijasida qishloq xo‘jaligida kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va gerbitsidlardan foydalanish tuproq, suv va havoning ifloslanishiga olib keladi. Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligida issiqxona gazlarining chiqishi, tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining tanqisligi kabi holatlar vaziyatga

¹³¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-157 b.

salbiy ta'sir etadi. Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirishning obyektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishlashini nazarda tutadi, chunki oxir-oqibat nafaqat aholining turmush darajasi, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog'liq.

Oziq-ovqat xavfsizligi - aholining barcha qatlamlarini sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste'mol ehtiyojlarini to'liq qoplash, xavfsizlik ko'rsatkich meyorlariga muvofiqligini ta'minlash, yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi davlatning iqtisodiy holatidir.

Ushbu masalalarni tizimli hal etish hamda fuqarolarning sog'lom ovqatlanishi uchun muhim ahamiyatga ega asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda quyidagilar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy himoya, ya'ni ijtimoiy reyestrlarda ro'yxatga olingan fuqarolarning o'zini o'zi oziq-ovqatlar bilan ta'minlashini tizimli ravishda tashkil etish uchun ularga yer maydonlari ajratish bo'yicha ishlarni kuchaytirish;
- Aholi salomatligini monitoring qilish;
- Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;
- Sog'lom ovqatlanishni targ'ib va tashviqot qilish ishlarini tashkil etish.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini yanada takomillashtirish borasida mamlakatimizda yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish va qayta ishlashga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiyinvestitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish kabi muhim bo'lgan vazifalar keltirib o'tilgan. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini 2020-2030-yillarga

mo‘ljallangan strategiya orqali rivojlantirish quyidagi jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan iqtisodiy ko‘rsakichlarga erishishini ta‘minlaydi. Qishloq xo‘jaligida 117,3 trln so‘mlik (14 mlrd AQSh doll.) qo‘shilgan qiymat yaratilgan bo‘lsa, uni yillik o‘sishi 2021-yilda 3 foizga, 2025 ba 2030 yillarda esa 5 foizdan kam bo‘lmagan holatda o‘stirish ko‘zda tutilgan. 2018 yilda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmi 2,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda uni 3,5 mlrd. AQSh dollari, 2025-yilda 10 mlrd. AQSh dollari, 2030 yilda esa 20 mlrd. AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan.¹³²

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari kuchli xom ashyo bazasi va arzon ishchi kuchiga ega, ammo eski texnologiyalar va infratuzilma yetishmasligi ularning raqobatbardoshligini cheklaydi. Shu sababli eksport imkoniyatlari, investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali sanoatni rivojlantirish mumkin. Kuchayib borayotgan raqobat, importning oshishi va iqlim o‘zgarishi korxonalar uchun jiddiy tahdid sanaladi. Ushbu SWOT tahlil natijasida oziq-ovqat korxonalarining strategik rejalar ishlab chiqiladi va o‘z faoliyatini yaxshilashda amaliy yordam beradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmi - bu o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tadbirlar majmui bo‘lib, korxonaning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga va shu orqali uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tizimli harakatlardir.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlaydigan bo‘lsak, oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

✓ Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish ya‘ni, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, texnologiyalarni yangilash va jarayonlarni avtomatlashtirish.

✓ Xom ashyo ta‘minotini yaxshilash orqali, arzon va sifatli xom ashyo manbalarini topish, yetkazib beruvchilar bilan strategik hamkorlik qilish.

✓ Boshqaruvni takomillashtirish natijasida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish.

¹³²

Turg‘unov M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari. SJ International journal of theoretical and practical research, 2021, 1 (2), 65-75

✓ Samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, brendni rivojlantiradi, marketingni kuchaytiradi.

✓ Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish, motivatsiya tizimini takomillashtirish.

✓ Zamonaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash ya'ni, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash.

Demak, oziq-ovqat mahsulotlarining samaradorligini oshirish mahsulotni yetishtirishdan boshlanadi va barcha imkoniyatlardan foydalanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-157 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

3. M. Turg‘unov Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari. SJ International journal of theoretical and practical research, 2021, 1 (2), 65-75.

4. G‘.H.Qudratov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2016. –508 bet